

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ZOOLOGIYA INSTITUTI

SOBIROV XUMOYUN FURKATJON O'G'LI

**O'ZBEKISTONDA *NEMATODIRUS* (NEMATODA: MOLINEIDAE)
AVLODI NEMATODALARI TUR TARKIBI, MORFOLOGIYASI VA
TAKSONOMIYASI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundariyasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Sobirov Xumoyun Furkatjon o‘g‘li

O‘zbekistonda *Nematodirus* (Nematoda: Molineidae) avlodi nematodalari tur tarkibi, morfologiyasi va taksonomiyasi..... 3

Собиров Хумоюн Фуркатжон угли

Видовой состав, морфология и таксономия нематод рода *Nematodirus* (Nematoda: Molineidae) Узбекистана..... 21

Sobirov Humoyun Furkatjon ugli

Species composition, morphology and taxonomy of nematodes of the genus *Nematodirus* (Nematoda: Molineidae) of Uzbekistan 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

SOBIROV XUMOYUN FURKATJON O'G'LI

**O'ZBEKISTONDA *NEMATODIRUS* (NEMATODA: MOLINEIDAE)
AVLODI NEMATODALARI TUR TARKIBI, MORFOLOGIYASI VA
TAKSONOMIYASI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2PhD/B1174 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Zoologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.izology.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kuchboyev Abduraxim Ergashevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shakarboyev Erkinjon Berdiqulovich
biologiya fanlari doktori, professor

Davronov Barno Orziyevich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti**


Dissertatsiya himoyasi Zoologiya instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.52.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «16» yanvar kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232^b-uy. Zoologiya instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 289-04-65, E-mail: zoology@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Zoologiya instituti Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (№1733-AR-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232^b-uy. Tel.: (+99871) 289-04-65.


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «29» dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil «29» dekabrda 12-raqamli reestr bayonnomasi)




B.R. Xolmatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor


G.S. Mirzayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.d., professor


F.D. Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi o'rinbosari, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida chorvachilik tarmog‘i rivojlanishi bilan birga, parazitlar kasalliklarning oldini olish ishlari va kasalliklarni nazorat qilish masalalarini hal etish global muammo hisoblanadi. Ma’lumki qishloq xo‘jaligi hayvonlarining turli parazit nematodalar bilan zararlanish darajasining oshib borishi natijasida chorvachilik sohasi rivojlanishi va chorva hayvonlarining mahsuldorlik darajasini kamayishiga olib kelmoqda. Parazit nematodalarning *Nematodirus* Ransom, 1907 (Nematoda: Molineidae) avlodi nematodalari chorvachilik va yovvoyi kavsh qaytaruvchi hayvonlarning hazm tizimida parazitlik qilib, mahsuldorlikning pasayishiga hamda, nasldorlikning yomonlashishiga sabab bo‘lmoqda. Shunga ko‘ra, *Nematodirus* avlodining nematode turlarini aniqlash, molekulyar-taksonomik tavsiflash, avlod ichidagi filogenetik aloqalarni o‘rganish, nematodalarning sistematikada tutgan o‘rnini hal etish, epizootologik monitoringini yuritish, invaziya diagnostikasi va nematodalarga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda hayvonlarning ovqat hazm qilish tizimida uchrovchi nematodalar, xususan hayvonlarni nematodiruslar bilan zararlanishi sababli kelib chiqadigan iqtisodiy zararlar, hayvonlarda kasallikning patogenezi, diagnostikasi va molekulyar-genetik tadqiqot ishlari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan nematodiruslar bilan zararlangan hayvon organizmida parazit holda yashashi natijasida ular o‘lish va rivojlanish sekinlashadi, qonning biokimyoviy tarkibi o‘zgaradi va hayvon organizmida immun tizimida o‘zgarishlar kuzatiladi. Shunga ko‘ra, *Nematodirus* avlodi nematodalarni aniqlash, molekulyar-genetik identifikatsiyalash, avlod ichida nematodalari orasidagi filogenetik aloqalarni o‘rganish, nematoda turlarining sistematikada tutgan o‘rnini hal etish, epizootologik monitoring tahlili va zararlanishining oldini olish texnologiyalarini yaratishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda chorvachilik sohasini rivojlantirish, ayniqsa, kavsh qaytaruvchi hayvonlar - qoramol, qo‘y va echkilardan yuqori mahsuldorlikka erishishda ularning nematodalar bilan zararlanishini oldini olishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, hududlar kesimida gelmintlarning taksonomik tarkibi aniqlandi, nematodalarning sonini kamayishiga ta’sir qiluvchi kurash chora-tadbirlari takomillashtirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-son “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida qarorida¹ «... chorvachilikning barcha tarmoqlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, ilmiy-tadqiqot natijalari va innovatsion ishlanmalarni mahsulot ishlab chiqarish va naslchilik-seleksiya amaliyotiga joriy etish ishlarini yo‘lga qo‘yish» vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, chorva hayvonlari organizmida parazitlik qiluvchi nematodalar tur tarkibi, morfologiyasi, biologiyasi, ho‘jayin organizmlarning nematodalar bilan zararlanish darajalari,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-son qarori.

zararlanishni mavsumiy va yoshga bog'liq dinamikasi, nematodalarni molekulyar-genetik jihatdan o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, "Mamlakatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish, chorvachilik sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilmfan yutuqlaridan samarali foydalanishni tashkil etish" vazifalari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 martdagi PQ-5017-son "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo bo'yicha *Nematodirus* avlodiga mansub nematodalarning tur tarkibi, taksonomiyasi, molekulyar-filogenyasi, biologiyasi va ularning keltiradigan zararlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar xorijlik olimlar L.G. Rickard, E.P. Hoberg (2000), A. Vlassoff, P.B. McKenna (1994), A.S. Familton, R.W. McAnulty (1997), F. Audebert et al. (2004), J.A. Van Wyk et al. (2004), G. Cringoli et al. (2004), E.P. Hoberg et al. (2005), F. Roeber et al. (2013), G.H. Zhao et al. (2014), R.S. Pettrigh, M.H. Fugassa (2014), M.A. Taylor et al. (2016), A. Oliver et al. (2016), C. McMahon et al. (2017), M.H. Rashid et al. (2019), C. Falkman et al. (2020), A.R. Alhaboubi et al. (2021), Y. Liu et al. (2022), D. Miressa et al. (2024) va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

MDH mamlakatlarida *Nematodirus* avlodi nematodalari bo'yicha quyidagi olimlar К.И. Скрябин (1954), В.М. Ивашкин и др. (1989), Ч.Т. Айбыкова (2007), А.В. Хрусталеv (2011, 2012), М.Г. Газимагомедов (2014), И.Б. Худойдодов (2019), Melnychuk et al. (2021), О.А. Loginova et al. (2021), Z.A. Magomedova et al. (2022), О.А. Loginova et al. (2024) va boshqalar tomonidan turlarining tarqalishi, zararlanishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekistonda uy va yovvoyi kavsh qaytaruvchi hayvonlarda parazitlik qiluvchi *Nematodirus* avlodi nematodalarining tur tarkibi, tarqalishi, biologiyasi va zararlanish dinamikasi bo'yicha Д.А. Азимов (1964), А.К. Кулмаматов (1967), М.А. Султанов и др. (1975), Ю.М. Зимин (1976), С.Д. Дадаев (1978, 1997), Б.Х. Рузиев (2001), М.Б. Абраматов и др. (2014), Д.А. Азимов и др. (2015), О.О. Амиров и др. (2016), О.О. Амиров (2017), А.Е. Kuchboev et al. (2016), Ф.Д. Акрамова и др. (2020), Л.А. Рахманова, Ф.Д. Акрамова (2021) А.А. Акбаров и др. (2023) va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Biroq yuqorida keltirilgan *Nematodirus* avlodi nematodalari bo'yicha O'zbekistonda olib borilgan ilmiy ishlar faunistik va epizootologik ma'lumotlar darajasida keltirilgan bo'lib, mazkur avlod turlarining hozirgi taksonomik holati va molekulyar-genetik tadqiqot ishlari bo'yicha to'laqonli ma'lumotlarni bera olmaydi. Shunga ko'ra, nematodiruslarning biologiyasi, morfologiyasi, zamonaviy tur tarkibi, zararlanishining mavsumiy dinamikasi, turlarni molekulyar-genetik identifikatsiyasi, filogeniyasi va turlarning filogenetik aloqalarni o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Juft tuyoqli hayvonlar va ularning parazit nematodalarini molekulyar identifikatsiyasi" mavzusidagi (2021-2024-yy.) ilmiy tadqiqot dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Nematodirus* avlodi nematodalarining zamonaviy tur tarkibi, biologik xususiyatlari, morfologiyasi, molekulyar taksonomik tavsifi, ho'jayinlarining zararlanish darajalari va ularga qarshi o'simlik ekstraktlarini biologik samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda kavsh qaytaruvchi hayvonlar paraziti - *Nematodirus* avlodi nematodalarining tur tarkibini aniqlash va viloyatlar kesimida tarqalishini tahlil qilish;

Nematodirus avlodi nematodalarining voyaga yetgan, tuxum va invazion lichinkalarining morfologiyasini o'rganish;

Nematodirus avlodi nematodalarining rivojlanish biologiyasini o'rganish;

Nematodirus avlodi nematodalarining ribosomal DNKsining ITS-2 sohasi nukleotidlar ketma-ketliklari asosida tahlil etish;

Nematodirus avlodi nematoda turlarining molekulyar filogenetik aloqalarini o'rganish;

Uy kavsh qaytaruvchi hayvonlarining nematodiruslar bilan zararlanishining yil mavsumlari, xo'jayin yoshi va balandlik mintaqalarga bog'liqlik darajasini tadqiq etish;

Uy kavsh qaytaruvchi hayvonlarida parazitlik qiluvchi nematodiruslarga qarshi mahalliy antigelmintik o'simlik ekstarktlarini sinash.

Tadqiqot obyekti sifatida kavsh qaytaruvchi hayvonlar va ularning oshqozon-ichak tizimida parazitlik qiluvchi *Nematodirus* avlodi nematodalari olingan.

Tadqiqotning predmeti kavsh qaytaruvchi hayvonlar oshqozon-ichak tizimi *Nematodirus* avlodi nematodalari tur tarkibi, morfologiyasi, biologiyasi, ho'jayinlarining zararlanish darajasi, molekulyar va filogenetik aloqalarini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida zoologik, gelmintologik, gelmintokoprologik, McMaster, morfologik, statistik, molekulyar-genetik va bioinformatik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston uy va yovvoyi kavsh qaytaruvchi hayvonlarning hazm qilish tizimida parazitlik qiluvchi *Nematodirus* avlodiga mansub nematodalarining 7 ta turga mansubligi isbotlangan;

Nematodirus abnormalis May, 1920 nematodasining tuxumdan invazion lichinka bosqichiga qadar rivojlanishni laboratoriya sharoitida aniqlangan;

ilk bor O'zbekistonda *Nematodirus* avlodi nematoda turlarining ribosomal DNK ITS-2 sohasi nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha molekulyar identifikatsiya qilingan va shu ma'lumotlar asosidagi filogenetik daraxtda 10 ta monofiletik guruh hosil qilishi aniqlangan;

Nematodirus abnormalis nematodasining rDNK ITS-2 sohasi nukleotidlar ketma-ketligi ilk bor tahlil qilingan va alohida mustaqil tur ekanligi isbotlangan;

O'zbekiston sharoitida mayda shoxli uy hayvonlarning nematodiruslar bilan zararlanishining yuqori ko'rsatgichi kuz faslida 29,1 % va kam zararlanishi esa qish faslida 22,5 % ekanligi aniqlangan;

Mayda shoxli hayvonlarning nematodiruslar bilan zararlanishi tog' oldi mintaqasi - 23,3%, tekislik mintaqasida – 16,7 % va tog' mintaqasida – 13,3 % to'g'ri kelganligi aniqlangan;

uy hayvonlarida nematodiruslarga qarshi antigelmintik xususiyatga ega bo'lgan mahalliy ingichka bargli hapri (*Perovskia angustifolia*) o'simligining turli foizdagi ekstraktlarini laboratoriya 43,3-93 % gacha va dala sharoitida 72,3-91,3 % biologik samaradorligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: *Nematodirus* avlodi nematoda turlarining morfologiyasi, morfometrik ko'rsatgichlari o'rganilgan, molekulyar-genetik ma'lumotlar tahlil qilingan, nematoda turlarini avlodi ichidagi filogenetik aloqalari ochib berilgan;

Uy kavsh qaytaruvchi hayvonlarining *Nematodirus* avlodi nematodalari bilan zararlanishining xo'jayin yoshiga bog'liqliligi, mavsumiy zararlanish dinamikasi va balandlik mintaqalarda hayvonlarning zararlanishi aniqlangan;

Uy kavsh qaytaruvchi hayvonlarida nematodiruslarning epizootik monitoringi o'tkazilgan, nematodiruslarga qarshi antigelmintik xususiyatga ega bo'lgan mahalliy ingichka bargli xapri o'simliklaridan tayyorlangan ekstraktlar laboratoriya va dala sharoitida biologik samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Dissertatsiya ishida klassik va zamonaviy gelmintologik usullardan foydalanilganligi hamda ilmiy yondashuvlar, tahlillar asosida olingan natijalar nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, ularning ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ilmiy hamjamiyat tomonidan davlat amaliy loyihalarini bajarish davomida tan olinganligi, morfometrik ma'lumotlar Biostat dasturida statistik tahlil qilinganligi, olingan nukleotidlar ketma-ketligi BioEdit, ClustalX 2.1, SeaView 5 dasturlari yordamida nukleotidlar ketma-ketligi, Mega 12, FigTree v1.4.4, iTOL dasturi yordamida filogenetik aloqalari tahlil qilinganligi va amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston hududida kavsh qaytaruvchi uy va

yovvoyi hayvonlarida *Nematodirus* avlodi nematodalar tur tarkibi aniqlanganligi, morfologik va morfometrik ko'rsatkichlari tahlil qilinganligi, O'zbekistonda *Nematodirus* avlodi nematoda turlari ilk bor ribosomal DNKsining ITS2 sohasi genlari yordamida molekulyar identifikatsiya qilinganligi hamda *N. abnormalis* nematodasi xalqaro GenBank bazasiga ilk bor joylashtirilganligi, molekulyar ma'lumotlar asosida avlod ichidagi turlar filogenetik jihatidan o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hayvonlarni gelmintlar bilan zararlantirishni tashxislovchi tezkor DNK tahlili usullarini takomillashtirish, nematodiruslarning epizootik jarayonlari monitoringini olib borish, nematodalarni invaziyasiga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda *Nematodirus* (Nematoda: Molineidae) avlodi nematodalar tur tarkibi, morfologiyasi va taksonomiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

molekulyar genetik tadqiqotlar natijasida, *Nematodirus* avlodiga mansub nematoda turlarining ITS-2 sohasi nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlari Biotexnologik axborotlar milliy markazi GenBank bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) ning 2025-yil 28-fevraldagi ma'lumotnomasi). Natijada, *N. spathiger* (PV135955; PV135956), *N. oiritianus* (PV133512; PV124855), *N. abnormalis* (PQ725622; PQ725609; PQ725599) nematoda turlari namunalarga kirish raqamlari olingan va ular xalqaro miqyosda nematoda turlarini aniqlash va filogeniyasini o'rganish imkonini bergan;

hayvonlarda uchrovchi nematodiruslarga qarshi antigelmintik ta'sirga ega tabiiy holda o'sadigan ingichka bargli xapri (*Perovskia angustifolia*) o'simligining bargi va poyasidan ajratilgan antigelmintik xususiyatga ega bo'lgan ekstraktlarining biologik samaradorligi aniqlangan va qo'llash bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Namangan viloyati Chust tumani "Roxat" fermer xo'jaligi hududlarida kavsh qaytaruvchi hayvonlarda nematodozlar tarqalishini oldini olish amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlashtirish qo'mitasining 2025-yil 29-iyundagi 03/23-2296-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'simliklardan olingan ekstraktlar kavsh qaytaruvchi hayvonlarda nematodozlarga qarshi yuqori samaradorlik ko'rsatkichiga erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta respublika va 4 ta xalqaro va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalari chop etish tavsiya qilingan jurnallarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "***Nematodirus Ransom, 1920 (Nematoda: Molineidae)* avlodi nematodalarini o'rganilganlik darajasi**" deb nomlangan birinchi bobi ikkita bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda Xorijda, Markaziy Osiyoda hamda O'zbekistonda *Nematodirus Ransom, 1907* avlodi nematodalarining tur tarkibi, morfologiyasi, biologiyasi hamda zararlanish holati bo'yicha o'rganilish darajasi bayon etilgan. Ikkinchi bo'limda *Nematodirus* avlodi nematodalari bo'yicha olib borilgan molekulyar-genetik, taksonomik va filogenetik tadqiqotlar bo'yicha ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili yoritilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "***Nematodirus Ransom, 1920* avlodi nematodalarini o'rganish usullari va tadqiqot materiallari**" deb nomlanib ikki bo'limdan iborat. Bobning 2.1-bo'limida tadqiqot olib borilgan hududlar, tekshirilgan hayvonlar soni, yig'ilgan biologik materiallar, koprologik tadqiqot usullari, zararlanish darajalarini statistik tahlil qilish usullari va antigelmintik xususiyatga ega bo'lgan mahalliy o'simlik ekstraktlarni laboratoriya va dala sharoitida sinash usullari va molekulyar-genetik tadqiqot usullarini o'rganish to'g'risida bayon qilingan.


Nematodiruslarning namaunalari 2023-2025 yillarda davomida O'zbekiston viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlaridagi fermer va shaxsiy xo'jaliklari hamda ushbu hududlarda joylashgan qushxonalarda so'yilgan hayvonlaridan yig'ildi (1-rasm).

Tadqiqot uchun 422 ta uy qo'yi (*Ovis aries* Linnaeus, 1758), 280 ta uy echkisi (*Capra hircus* L., 1758) va 187 ta qoramoldan (*Bos taurus* L., 1758) hazm qilish tizimining ingichka ichak qismidan nematodiruslar yig'ildi va 70% etil spirtida fiksatsiya qilindi. Nematodiruslar morfologiyasini o'rganishda ML 2000 (Meiji Techno CO., LTD, Japan), Nexcope NE930-FLT (China) mikroskoplaridan foydalanilgan.

Nematoda turlarini rasmga olishda NEXCAM-T5 20MP (China) kamerasi yordamida va Nexcope dasturi yordamida qayta ishlandi.

Ushbu bobning 2.2-bo'limida nematodiruslarning ayrim turlari molekulyar-genetik tadqiqot uslublariga bag'ishlangan. Nematoda turlarida genom DNK ajratishda Diatom DNA Prep (Биоком, Россия) va GeneJET Genomic DNA Purification KIT (Thermo Scientific, Lithuania) to'plamlaridan foydalanildi. Nematoda turlaridan polimer zanjir reaksiyasi (PZR) o'tkazishda ITS2 sohasi

nukleotidlar ketma-ketligi sintez qilindi. PZR ProFlex PCR System (China) yordamida amalga oshirildi. PZRdan olingan namunalar gel-elektroforez usuli yordamida tekshirildi. PZR maxsulotlari Purelink Quick Gel Extract & PCR Purification Combo Kit (Thermo Scientific, Lithuania) to'plamidan foydalangan holda tozalandi. Tozalangan namunalarda sekvens reaksiyani amalga oshirish uchun BigDye™ Terminator v3.1 Cycle Sequencing Kit (Thermo Scientific, Lithuania) to'plamidan foydalanilgan holda amalga oshirildi.



1-rasm. Tadqiqot olib borilgan hududlar xaritasi

Sekvens reaksiyasi namunalari SeqStudio™ Genetic Analyzer Appliedbiosystems (Thermo Fisher Scientific) sekvenatorida amalga oshirildi. Olingan ketma-ketlik ma'lumotlarini tahlil qilish uchun SnapGene Viewer va BioEdit v7.2.0 dasturlari yordamida nukleotidlar ketma-ketligi tahrir qilindi. Filogenetik tahlil uchun Clustal W2 dasturida barcha namunalar ketma-ketlikni moslashtirib chiqildi (Multiple sequence alignment) chiqildi. Undan so'ng SeaView 5.0.5 dasturi yordamida nukleotidlardagi keraksiz qismlar olib tashlandi. Olingan nukleotid namunalari ketma-ketligi Mega12 bioinformatik dasturi yordamida maksimal ehtimollik (Maximum likelihood) usuli orqali tahlil qilindi. Olingan filogenetik daraxt IQ-TREE, FigTree 1.4.4 dasturlari yordamida qayta ishlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “*Nematodirus Ransom, 1920* avlodi nematodalarini tur tarkibi, morfologiyasi, biologiyasi va molekulyar taksonomik tavsifi” deb nomlanib, unda yig'ilgan nematodalarning tur tarkibi, tarqalishi, nematoda turlari, tuxum va lichinkalarning morfologik xususiyatlari va rivojlanish biologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Shu

bilan birga *Nematodirus* avlodi nematodalarining ribosomal DNKsi ITS-2 sohasi nukleotidlar ketma-ketliklari tahlili va filogenetik munosabatlari bayon etilgan.

Bobning 3.1-bo'limi "O'zbekistonda kavsh qaytaruvchi hayvonlarda uchrovchi *Nematodirus* avlodi nematodalarining tur tarkibi va tarqalishi" deb nomlanib, unda, kavsh qaytaruvchi uy va yovvoyi hayvonlarning hazm tizimida 7 turga mansub *Nematodirus* avlodi nematodalarini topilib, ular *Nematodirus abnormalis*, *N. oiratianus*, *N. helvetianus*, *N. davtiani*, *N. spathiger*, *N. sugatini* va *N. filicollis* turlari ekanligi aniqlandi. Shundan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida 6 ta tur, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Namangan, Xorazm viloyatlarida 5 tur, Navoiy viloyatida va Qoraqalpog'iston respublikasida 4 ta tur, Sirdaryo va Andijon viloyatlarida 3 tur nematodiruslar qayd etildi. Viloyatlar kesimida nematodiruslarning uchrashishi eng ko'p Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Namangan, Xorazm viloyatlariga to'g'ri kelgan. Ulardan uy qo'yi va echkilarida 6 - ta, qoramollarda - 3 ta, qizilqum arxarida - 2 ta tur aniqlangan.

Nematoda turlarining sistematik holati aniqlagichlar va xorijiy olimlar ilmiy ishlarida qabul qilingan sistematik birliklar asosida quyidagi sistematik holatga ega bo'ldi.

Nematoda Cobb, 1932 tipi

Secernentea Von Linstow, 1905 sinfi

Strongylida Railliet et Henry, 1913 turkumi

Strongylata Railliet et Henry, 1913 kenja turkumi

Trichostrongyloidea Leiper, 1912 katta oilasi

Molineidae Skrjabin & Schulz, 1937 oilasi

Nematodirus Ransom, 1907 avlodi

Turlar:

Nematodirus filicollis Ransom, 1907

Nematodirus oiratianus Rajewskaja, 1929

Nematodirus helvetianus May, 1920

Nematodirus davtiani Grigoryan, 1949

Nematodirus spathiger Railliet, 1896

Nematodirus sugatini Sokolova, 1948

Nematodirus abnormalis May, 1920

Shuningdek, ushbu bobda nematodiruslarning hayvonlardagi invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligi bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Bobning 3.2-bo'limi "*Nematodirus* avlodi nematodalarining morfologiyasi" deb nomlangan bo'lib, O'zbekistonda qayd etilgan *Nematodirus* avlodi nematodalarining morfologik, morfometrik o'lchamlari va invazion lichinkalarining morfologiyasi, tuxumining o'lchamlari, blastomerlarning tuzilishi, tuxum shakli va invazion lichinkalarning morfologik tuzilish, tana shakli bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu bobda *Nematodirus abnormalis*, *N. oiratianus*, *N. helvetianus*, *N. davtiani*, *N. spathiger*, *N. sugatini* va *N. filicollis* nematodalarining morfometrik belgilari keltirib o'tilgan. Oshqozon-ichak nematodalarini vakillari o'ziga xos morfologik belgilarga ega bo'lib, bular urg'ochi jinsiga nisbatan erkak individlarida ko'proq namoyon bo'ladi. Qo'yi va echkilarda aniqlangan *N.*

abnormalis, *N. spathiger*, *N. oiratianus* nematodalarini morfologik jihatdan bir-biridan morfologik jihatdan farq qilib, ularni asosan spikula shakli va bursa tuzilishi bilan farqlash mumkin. *N. abnormalis* nematodasida spikula uchki qismi biroz qiyshaygan, assimetrik lanset shaklidagi membrana bilan qoplangan. *N. oiratianus* nematodasining spikula uchki qismi tutashgan bo‘lib, ingichka naycha shaklda tugaydi. *N. spathiger* nematodasi spikulaning distal uchi biroz egilgan shaklga ega bo‘lishi bilan boshqa nematodiruslardan farqlash mumkin. Shunday bo‘lsada, nematodiruslar morfologik jihatdan juda o‘xshash bo‘ladi, bu nematoda turlarini aniqlashda qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan nematodiruslar morfologik va morfometrik ko‘rsatgichlari bo‘yicha tahlil qilingan. Invazion lichinkalarning bosh og‘iz teshigi mavjud. Nematodiruslarning invazion lichinkalarining dum qismida o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Invazion lichinkalari (L3) boshqa ichak nematodalariga qaraganda nisbatan uzun. Lichinkalarning tuzilishini mikroskopik kuzatish shuni ko‘rsatdiki, dum qismining oxirgi qismining shakliga va tuzilishiga qarab, nematodiruslarni lichinka bosqichida aniqlash mumkin.

Bobning 3.3-bo‘limi “*Nematodirus* avlodi nematodalarini rivojlanish biologiyasi” deb nomlanib, unda tuxumdan lichinkagacha bo‘lgan jarayon o‘rganildi (2-rasm).



2-rasm. *Nematodirus* avlodi nematodalarining tuxum va lichinkasining rivojlanish bosqichlari


Izoh: A-tuxum; B-D - rivojlanayotgan tuxumlar; E. L1 rivojlanish bosqichi; F - L2 rivojlanish bosqichi; G - L3 invazion lichinka

Buning uchun nematodirus tuxumlarining Leibovitz L-15 ozuqa muhiti, fiziologik eritmasi, distillangan suvda va 20°C, 25°C, 30°C li turli hil haroratlarda rivojlanishi o‘rganildi. Natijada, tajribalarda 25°C haroratda Leibovitz L-15 ozuqa muhitida 15-kuni tuxumlardan uchinchi (L3) bosqichga o‘tganligi kuzatildi. Bu ko‘rsatgich fiziologik eritmada 17 kuni va distillangan suvli eritmada esa 21-kuni kuzatildi. Su bilan birga invazion lichinkalarni keyingi to‘rtinchi bosqichga (L4) o‘tganligi ham tajribamizda kuzatildi.

Bobning 3.4-bo‘limi “*Nematodirus* avlodi nematodalarining ribosomal DNKsi ikkinchi ichki transkripsiyalangan speyseri (ITS-2) asosidagi nukleotidlar ketma-ketliklari tahlili” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda ITS-2 sohasi bo‘yicha

nematodiruslarning filogenetik aloqalarni o'rganishda *Nematodirus* avlodi nematodalarini identifikatsiya qilishda va avlod ichidagi filogenetik aloqalarni o'rganishda foydali marker hisoblanadi. Shuning uchun molekulyar-genetik tadqiqot ishlarida *Nematodirus oiratianus*, *N. spathiger*, *N. abnormalis* nematodalaridan ITS-2 sohasi nukleotidlar ketma-ketligi sekvens qilindi.

N. oiratianus nematodalarining turining ITS-2 sohasi bo'yicha rDNK ITS-2 sohasidan 310 juftidan ortiq nukleotidlar olindi. Ushbu tadqiqotda olingan nukleotidlar ketma-ketligi GenBank ma'lumotlar bazasiga *N. oiratianus* nematodasi namunasi joylandi va GenBank ma'lumotlar bazasidan olingan namunalar bilan tahlil qilindi (3-rasm).




3-rasm. *Nematodirus* avlodi nematodalarining rDNK ITS-2 sohasining nukleotidlar ketma-ketligi asosida taqqoslash

NCBI ma'lumotlar bazalaridagi nukleotidlar ketma-ketligini ishlatgan BLASTN tahlil ketma-ketligi boshqa *Nematodirus oiratianus* (OP879215) nematodasi ketma-ketliklari bilan 100% o'xshashligini ko'rsatdi. Tadqiqotimizdagi *N. oiratianus* (PV124855) nematoda namunasi bilan Genbank ma'lumotlar bazasidagi *N. oiratianus* (OP879215) turlari bilan 98 % o'xshashlik qayd etildi.

N. spathiger nematodasining ITS-2 sohasi bo'yicha nukleotidlar ketma-ketligi namunasi bilan Genbank bazasidagi *N. spathiger* nematodasi turlari bilan tahlil qilindi. Biz tomonimizdan sekvens qilingan *N. spathiger* (PV135956) nematodasi bilan ma'lumotlar bazasidagi *N. spathiger* nematodasi namunalari (KC58074; ON001112) bilan nukleotidlar ketma-ketligi tahlil qilingan.

N. abnormalis nematodasining ITS-2 sohasi bo'yicha uchta namunalari Genbank bazasiga ilk marotaba joylandi. *N. abnormalis* nematodasi namunasi bilan Genbank bazasidagi *Nematodirus* sp. (HQ844230) nematodasi turi bir-biriga juda yaqin o'xshashlikni nomoyon qilgan.

Bobning 3.5-bo‘limi “*Nematodirus* avlodi nematoda turlarining ribosomal DNKsining ITS-2 sohasi bo‘yicha filogenetik munosabatlari” tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, Molineidae oilasi *Nematodirus* avlodiga mansub *Nematodirus battus*, *N. filicollis*, *N. helvetianus*, *N. spathiger*, *N. tarandi*, *N. andersoni*, *N. rupicaprae*, *N. davtiani*, *N. abnormalis*, *Nematodirus* sp. va *N. oiratianus* nematodalari tahlil qilinganda 10 ta alohida monofiletik guruhga (klada) birlashgan. Tadqiqot ishida tashqi guruh sifatida *Teladorsagia* avlodining *T. circumcincta* turidan foydalanilgan (4-rasm).



4-rasm. *Nematodirus* avlodi nematoda turlarining maksimal ehtimollik (ML) usuli yordamida rDNKning ITS-2 sohasi ketma-ketligiga asoslangan filogenetik daraxti

Filogenetik daraxtni eng tashqi guruhi *Nematodirus battus* nematoda namunalarni joylashib, X kladani hosil qildi va tashqi guruhga eng yaqin nematoda turi sifatida tasvirlangan.

Filogenetik daraxtdagi IX kladada *Nematodirus* avlodining tipik vakili *N. filicollis* nematodasi joylashib, filogenetik daraxda tashqi guruhga yaqin joylashgan. Tadqiqotimizdagi o‘rganilgan *Nematodirus spathiger* nematodasi va GenBank bazasidagi *N. spathiger* nematoda namunalari bilan birga VIII kladani hosil qilib, *N. helvetianus* nematodasi namunalari juda yaqin joylashganligini ko‘rishimiz mumkin. Filogenetik daraxtning II kladasi tadqiqotimizdagi *N. abnormalis* nematodasining uchta namunasi bilan genbank bazasidagi *Nematodirus* sp. (HQ844230) nematoda namunasi bir guruhda joylashdi va

Nematodirus sp. nematodasi sifatida tadqiq etilgan nematoda turlari bir kladaga joylandi. Ushbu filogenetik daraxt tahlilida I kladada tadqiqotimizdagi *N. oiratianus* nematodasi namunalari bilan GenBank ma'lumotlar bazasidagi *N. oiratianus* nematodasi namunalari bilan bitta guruhga birlashdi.

Shunday qilib, ushbu filogenetik daraxtda *Nematodirus* avlodi nematodasining GenBank ma'lumotlar bazasidagi mavjud nematoda turlari asosida filogenetik tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalariga ko'ra, ITS-2 sohasi nukleotidlar ketma-ketligi asosidagi *Nematodirus* nematodalarining filogenetik daraxtdagi o'rni, ularning definitiv xo'jayinlariga bog'liq ravishda joylashganligi bilan izohlangan. Ushbu tadqiqotda *Nematodirus* nematodalari 10 ta monofiletik guruhlarni hosil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Takidlash joizki, rDNK ITS-2 sohasi *Nematodirus* avlodi nematoda turlarini filogenetik aloqalarini tahlil qilishda foydali marker ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Biz tomonimizdan *N. abnormalis* nematodasining uchta namunasi ilk bor GenBank ma'lumotlar bazasiga yuklandi va ushbu bazadagi *Nematodirus sp.* (HQ844230.1) nematoda turi bilan filogenetik daraxtda bitta monofiletik guruhda joylashdi. Shu ta'kidlash kerak-ki, ushbu *Nematodirus sp.* nematodasi sifatida tadqiq etilgan namuna *N. abnormalis* nematodasi bo'lishi mumkinligi izohlandi. Ushbu tadqiqot ishi natijalari nafaqat rDNK ITS-2 sohasi *Nematodirus* avlodi nematodalarini nafaqat identifikasiya qilish, balki filogenetik aloqalarining tahlil qilish uchun ham foydali ekanligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Hayvonlarda nematodirozning epizootik jarayoni monitoringi va ularga qarshi mahalliy o'simlik ekstraktlarini sinash”** deb nomlanib, unda nematodiruslar bilan hayvonlarning zararlanish dinamikasi, zararlanishining xo'jayin yoshi va yil mavsumlariga bog'liqliligi, o'simlik ekstraktlarining laboratoriya va dala sharoitida mayda shoxli hayvonlardagi nematodiruslarga ta'siri bo'yicha olib borilgan eksperimental tajribalar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Bobning 4.1-bo'limi “Mayda shoxli hayvonlarning nematodiruslar bilan zararlanish dinamikasi” deb nomlangan bo'lib, ushbu bo'limda hayvonlarning nematodiruslar bilan zararlanishining viloyatlar kesimi bo'yicha nematodiruslarning invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Mayda shoxli hayvonlarning hazm qilish tizimida *Nematodirus* avlodi nematoda turlari bilan zararlanishining invaziya ekstensivligi va invaziya intensivlik ko'rsatgichlari aniqlandi. Jumladan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida 6 tur, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Namangan, Xorazm viloyatlarida 5 tur, Navoiy viloyatida va Qoraqalpog'iston respublikasida 4 tur, Sirdaryo va Andijon viloyatlarida 3 tur nematodiruslar qayd etildi. Viloyatlar kesimida nematodirus nematodalari turlar xilma-xilligi Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Namangan viloyatlarida zararlanish darajalari yuqori ekanligi aniqlandi. Qo'y va echkilarda *N. oiratianus*, *N. spathiger* va *N. abnormalis* nematoda turlari keng tarqalgan bo'lib, ushbu turlar bilan zararlanish deyarli barcha viloyatlarda qayd etildi. *N. davtiani* va *N. sugatini* nematodalari bilan zararlanish kam uchratilgan.

Tadqiqotlarda nematoda turlarining kavsh qaytaruvchi uy hayvonlarda zararlanish darajalari viloyatlar kesimida tahlil qilindi. Unga ko'ra eng yuqori zararlanish Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida qayd etildi. Jumladan, Surxondaryo viloyatida *N. helvetianus* nematodasi invaziya ekstensivligi 8.4%, invaziya intensivligi 1-7 nusxa, *N. oiratianus* nematodasida invaziya ekstensivligi-12.6%, invaziya intensivligi 2-17 nusxa, *N. spathiger* nematodasida invaziya ekstensivligi-10.5%, invaziya intensivligi 3-25 nusxa, *N. abnormalis* nematodasida invaziya ekstensivligi 12.6%, invaziya intensivligi 2-45 nusxa, *N. sugatini* nematodasida invaziya ekstensivligi 1.1%, invaziya intensivligi 2 nusxa, *N. filicollis* nematodasida invaziya ekstensivligi 7.3%, invaziya intensivligi 3-23 nusxada ekanligi aniqlandi. Qashqadaryo viloyatida *N. helvetianus* nematodasida invaziya ekstensivligi 11.4%, invaziya intensivligi 2-25 nusxa, *N. oiratianus* nematodasida invaziya ekstensivligi 9.5%, invaziya intensivligi 2-27 nusxa, *N. spathiger* nematodasida invaziya ekstensivligi 7.6%, invaziya intensivligi 2-32 nusxa, *N. abnormalis* nematodasida invaziya ekstensivligi 12.3%, invaziya intensivligi 3-15 nusxa, *N. davtiani* nematodasida invaziya ekstensivligi 0.95%, invaziya intensivligi 5 nusxa va *N. filicollis* nematodasida invaziya ekstensivligi 8.2%, invaziya intensivligi 2-25 nusxada zararlanish qayd etildi.

Eng kam zararlanish esa Sirdaryo viloyatiga tog'ri kelgan bo'lib, *N. oiratianus* nematodasida invaziya ekstensivligi 6%, invaziya intensivligi 4-21 nusxa, *N. spathiger* nematodasida invaziya ekstensivligi 8%, invaziya intensivligi 2-12 nusxa, *N. abnormalis* nematodasida invaziya ekstensivligi 10%, invaziya intensivligi 2-18 nusxada ekanligi tadqiqot davomida aniqlandi.

Mazkur bobning 4.2-bo'limi "Mayda shoxli hayvonlarning nematodiruslar bilan zararlanishining xo'jayin yoshi, yil mavsumlari va mintaqalarga bog'liqliligi" zararlanishining hayvonlar yoshiga bog'liq ko'rsatgichlari tekshirilganda 2 yoshdan katta bo'lgan mayda shoxli hayvonlar ko'proq zararlanishi va invaziya intensivligi ham ushbu yoshdagi hayvonlarda yuqori ekanligi tekshirishlar natijasida aniqlandi. 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan qo'ylarda *N. abnormalis* nematodasida invaziya ekstensivligi 25% tashkil qildi, invaziya intensivligi 2-44 nusxada ekanligi aniqlandi. Bir yoshgacha bo'lgan qo'zilarida *N. abnormalis* nematodasida invaziya ekstensivligi 17,6% tashkil etgan bo'lsa. Nematodalar soni 2-24 nusxagacha ekanligi aniqlandi. Ikki yoshdan katta qo'ylarda invaziya ekstensivligi 25,9% tashkil qilgan, invaziya intensivligi 2-52 nusxada ekanligi aniqlandi. Bir yoshgacha bo'lgan echkilarda invaziya ekstensivligi 22,2%, invaziya intensivligi 2-34 nusxada ekanligi aniqlangan. 1-2 yoshli echkilarda invaziya ekstensivligi 23,4%, invaziya intensivligi 3-41 nusxani tashkil qilgan. Ikki yoshdan katta echkilarda invaziya intensivligi 24,5%, invaziya intensivligi 2-51 nusxani tashkil etdi. Nematodalar hayvonlarda aralash invaziya holatida ham uchrab *N. abnormalis* va *N. spathiger* nematodalarida kuzatilgan bo'lsa, triinvaziya holati *N. oiratianus*, *N. abnormalis*, *N. spathiger* nematodalari orasida aralash invaziya kuzatildi. Tajribalarda ikki yoshdan katta bo'lgan qo'ylarda biinvaziya va triinvaziya holatlari kuzatildi.

Nematodalarning hayvonlarni zararlashining mavsumiy o'zgarib borishi ularning biologiyasi, abiotik va biotik omillarning barchasi epizootologik jihatdan,

ayniqsa invazion kasalliklarning mavsumiy o'zganishda katta ahamiyatga ega. Uy qo'yi va echkilarida *Nematodirus* avlodi nematodalari bilan yil mavsumlari bo'yicha zararlanishi tajribalarimizda o'rganildi. Yil davomida tekshirilgan uy qo'yi va echkilarida *Nematodirus* avlodi nematodalari bilan yil mavsumlari bo'yicha zararlanish darajasi bahor fasli va kuzda yuqori bo'lib invaziya intensivligi ham mos ravishda yuqori ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Mayda shoxli hayvonlarda *Nematodirus* avlodi nematodalari bilan yil mavsumlari bo'yicha zararlanishi

Nematoda turlari	Fasllar (hayvonlar soni, bosh)			
	Bahor (205)	Yoz (180)	Kuz (210)	Qish (160)
	Zararlangan, % / Invaziya intensivligi, nusxada			
<i>N. oiratianus</i>	19/9,2/1-27	25/13,9/2-24	41/19,5/2-28	24/15/2-21
<i>N. helvetianus</i>	25/12,1/1-25	14/7,8/2-18	27/13,8/1-22	16/10/1-18
<i>N. davtiani</i>	1/0,48/1-5	-	1/0,5/1-3	-
<i>N. spathiger</i>	28/13,6/1-27	20/11,1/1-15	32/15,2/2-18	22/13,75/2-23
<i>N. sugatini</i>	1/0,5/3	-	1/0,5/3	-
<i>N. abnormalis</i>	37/18,1/1-51	31/17,2/1-26	35/16,7/2-38	28/17,5/1-26
<i>N. filicollis</i>	26/12,7/2-34	15/8,3/2-22	30/14,2/1-32	11/6,8/1-18

Bahorda invaziya intensivligi 25,4% gacha yetgan, yoz fasli davomida zararlanish kamayib zararlanish 20,5%, kuz oylarida zararlanish ko'rsatgichlari ko'tarilib 29,1 % tashkil etgan, qish faslida hayvonlarni zararlanishi biroz kamaygan va invaziya intensivligi 22,5 % tashkil qilgan.

Bobning 4.3-qismida "Mahalliy o'simlik ekstraktlarining *in vitro* sharoitida nematodiruslarga ta'siri" deb nomlanib, mayda shoxli hayvonlarning ovqat hazm qilish tizimida uchrovchi *Nematodirus* avlodi nematodlarining turli ozuqa muhitlarida yashash muddatini va nematodalarga qarshi antigelmintik xususiyatga ega bo'lgan mahalliy ingichka bargli xapri o'simligining 10% eritmasi ta'sir ettirilgan namunalarda nematodalar soni 7 kun davomida 17 tagacha kamayib, samaradorlik 43,3% tashkil etdi. *Perovskia angustifolia* o'simligining suvli ekstraktining 20% eritmasi ta'sir ettirilgan namunalarda nematodalarning soni 11 tagacha kamayganligi kuzatildi va biologik samaradorlik 7 kun davomida 63,3% gacha yetganligini ko'rish mumkin. *Perovskia angustifolia* o'simligining 30% eritmasi ta'sir ettirilgan namunalarda nematodalar soni 2 tagacha kamayib, 93% biologik samaradorlikka erishildi.

Bobning 4.4-qismida "O'simlik ekstraktlarining dala sharoitida mayda shoxli hayvonlardagi nematodiruslarga qarshi samaradorligini aniqlash" deb nomlangan bo'lib, O'zbekistonda tabiiy holda o'sadigan antigelmintik xususiyatga ega bo'lgan *Perovskia angustifolia* o'simligining suvli ekstraktlarini Namangan viloyatidagi fermer xo'jaligida va shaxsiy xo'jaliklarda boqilayotgan qo'y va echkillardagi

oshqozon ichak nematodozlariga qarshi biologik samaradorligini aniqlash ishlari amalga oshirildi. Dala sharoitida mayda shoxli hayvonlar nematodirozlariga ta'siri natijalari keltirilgan bo'lib, *Perovskia angustifolia* o'simligining 20% ekstarkting biologik samaradorligi 72,3%, ekstensiv samaradorlik 60% tashkil etgan bo'lsa, 30 % ekstraktining biologik samaradorligi 91,3 % tashkil etgan bo'lib, ekstensiv samaradorlik 90% tashkil qilgan. *Perovskia angustifolia* o'simligining yer ustki qismidan tayyorlangan ekstrakt samarali tabiiy preparat ekanligi tajribalarda aniqlandi.

XULOSALAR

“O‘zbekistonda *Nematodirus* (Nematoda: Molineidae) avlodi nematodalari tur tarkibi, morfologiyasi va taksonomiyasi” mavzusidagi biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Tadqiqot ishi natijasida O‘zbekistonning uy va yovvoyi kavsh qaytaruvchi hayvonlarining ichak tizimida *Nematodirus* avlodiga mansub 7 turi *Nematodirus abnormalis*, *N. oiratianus*, *N. helvetianus*, *N. davtiani*, *N. spathiger*, *N. sugatini* va *N. filicollis* nematodalar parazitlik qilishi aniqlandi.

2. Viloyatlar kesimida nematodiruslarning hayvonlar organizmida tarqalishi o'rganilganda, eng ko'p nematoda turlari Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatiga (6 ta) va eng kam Sirdaryo va Andijon viloyatlariga (2 va 3 ta) to'g'ri kelishi kuzatildi.

3. Aniqlangan barcha nematodalarning morfologik tuzilishi va morfometrik o'lchamlarining ko'rsatgichlari bo'yicha tavsif berildi. *Nematodirus abnormalis* May, 1920 nematodasining tuxumdan invazion lichinka bosqichiga qadar rivojlanishi laboratoriya sharoitida aniqlandi.

4. Nematodiruslarning rivojlanish turli ozuqa muhitlari va haroratlarda laboratoriya sharoitida o'rganilidi. Natijada, 25°C harorat invazion lichinkalarning tuxumdan chiqishi uchun qulay ekanligi va bunda Leibovitz L-15 ozuqa muhiti samarali ekanligi isbotlandi.

5. Tadqiqotda *Nematodirus spathiger*, *N. oiratianus* va *N. abnormalis* nematodalari rDNKsining ITS-2 sohasi molekulyar-genetik jihatdan tahlil qilindi. Olingan nukleotidlar ketma-ketligi GenBank bazasidagi mavjud nematoda turlari bilan taqqoslandi, natijada *N. spathiger* va *N. oiratianus* nematodalariga 100% o'xshashligi, *N. abnormalis* nematodasi esa *Nematodirus sp.* nematoda namunasiga 99% mos kelishi qayd etildi.

6. Nematodirus avlodi nematodalarining ITS-2 sohasi nukleotidlar ketma-ketligi asosidagi molekulyar filogenetik aloqalari o'ganildi. Umuman, nematodiruslarning filogenetik daraxtdagi o'rni, ularning xo'jayinlari bilan bog'liq ravishda joylashganligi bilan izohlanadi va 10 ta monofiletik guruhlarni hosil qilishi aniqlandi.

7. Molekulyar tadqiqotlar davomida *Nematodirus* avlodi nematodalarining nukleotidlar ketma-ketligi Genbank bazasiga (NCBI) joylashtirildi va *Nematodirus spathiger* (PV135955; PV135956), *N. abnormalis* (PQ725622; PQ725609; PQ725599) va *N. oiratianus* (PV124855; PV133512)

nematoda namunalariga kirish raqamlari olindi. *N. abnormalis* nematodasi Xalqaro GenBank bazasiga ilk marotaba joylashtirildi.

8. Nematodiruslar bilan hayvonlarning zararlanishi bahor mavsumida invaziya ekstensivligi 25,4 %, yoz faslida esa ushbu ko‘raskich zararlanish 20,5 % gacha kamayishi, kuz faslida zararlanish ko‘tarilib 29,1 % tashkil etishi, qish faslida hayvonlarning zararlanishi nisbatan kamayishi 22,5 % qayd etildi.

9. Qo‘y va echkilarning hazm qilish tizimida nematodiruslarda bi va triinvaziya bilan zararlanish mavjudligi qayd etildi va 2 yoshdan katta bo‘lgan hayvonlarda assotsiativ invaziya yuqori ekanligi ochib berildi.

10. Hayvonlarda uchrovchi nematodiruslarga qarshi antigelmintik xususiyatga ega bo‘lgan *Perovskia angustifolia* (ingichka bargli xapri) o‘simligining yer ustki qismi ekstrakti laboratoriya sharoitida 43,3-93 % gacha, dala sharoitida ta’sir ettirilganda dala sharoitida 72,3-91,3 % gacha biologik samaradorlik ko‘rsatkichga egaligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.B.52.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ЗООЛОГИИ**

ИНСТИТУТ ЗООЛОГИИ

СОБИРОВ ХУМОЮН ФУРКАТЖОН УГЛИ

**ВИДОВОЙ СОСТАВ, МОРФОЛОГИЯ И ТАКСОНОМИЯ НЕМАТОД
РОДА *NEMATODIRUS* (NEMATODA: MOLINEIDAE) УЗБЕКИСТАНА**

03.00.06 – Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.2PhD/B1174.

Диссертационная работа выполнена в Институт зоологии.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.izooology.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Кучбоев Абдурахим Эргашевич
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Шакарбоев Эркинжон Бердикулович
доктор биологических наук, профессор

Давронов Барно Орзиевич
кандидат биологических наук, доцент

Ведущая организация:

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами

Защита диссертации состоится «16» января 2026 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.B.52.01 при Институте зоологии в зале заседаний института (Адрес: 100053, г. Ташкент, ул. Богишамол, дом 232^б. Тел.: (+99871) 289-04-65, E-mail: zoology@academy.uz).


С диссертации можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института зоологии (зарегистрировано за №1733-AP). Адрес: 100053, г. Ташкент, ул. Богишамол, дом 232^б. Тел.: (+99871) 289-04-65.

Автореферат диссертации разослан «29» декабря 2025 года.
(реестр Протокола рассылки №12 от «29» декабря 2025 года)




Б.Р. Холматов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор


Г.С. Мирзаева
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор


Ф.Д. Акрамова
Зам. председателя Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней
д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации.

В настоящее время, наряду с развитием животноводческой отрасли в мировом масштабе, профилактика паразитарных заболеваний и решение вопросов их контроль становятся глобальной проблемой. Известно, что рост уровня зараженности сельскохозяйственных животных различными паразитическими нематодами приводит к замедлению развития животноводства и снижению продуктивности животных. Нематоды рода *Nematodirus* Ransom, 1907 (Nematoda: Molineidae) паразитируют в пищеварительной системе сельскохозяйственных и диких жвачных животных, вызывая снижение продуктивности и ухудшение качества разведения. Соответственно, выявление видового состава нематод рода *Nematodirus*, их молекулярно-таксономический характеристики, изучение филогенетических связей внутри рода, определение их систематического положения, проведение эпизоотологического мониторинга, диагностики инвазий и разработка мер борьбы с нематодами имеют важное научное и практическое значение.

Во всем мире ведутся научные исследования, направленные на изучение нематод, паразитирующих в пищеварительной системе, в частности, причиняемого заражением животных *Nematodirus* экономического ущерба, патогенеза заболевания у животных, методов диагностики и молекулярно-генетических исследований. В данном направлении, в частности, установлено, что паразитирование нематодирусов в организме заражённых животных приводит к замедлению их роста и развития, изменению биохимического состава крови и нарушениям в иммунной системе. В связи с этим особое внимание уделяется выявлению видов нематод рода *Nematodirus*, их молекулярно-генетических идентификации, изучению филогенетических связей между видами внутри рода, уточнению их систематического положения, проведению эпизоотологического мониторинга и разработке технологий профилактики заражения.

